

## **BIOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

**Gulshanda Azimovna**

G'ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi

biologiya fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8129228>

**Annoatasiya:** Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi - dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin, darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkolikda ishlashini va natijada o'zlashtirishlarini ta'minlashi lozim.

**Kalit so'zlar:** interfaol,metod, o'yin, faoliyat, zamonaviy,jarayon, dars

.Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahsmunozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.5-9 sinflarda biologiya darslarida "Zinama-zina" "Aqliy hujum", "6x6x6", "Modulli ta'lim texnologiyasi","Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi","To'g'ri top","Klaster","Auktsion", "BBB", Guruhlarda ishlash, "Davra suhbat", "Zanjir", "Ha - yo'q", "Rolli o'yinlar," Bingo", "Topgan topaloq", "Intervyu", "Kichik guruhlarda ishlash", "Sinkveyn", "To'g'ri top", "Bingo", "Domino", "Charxpalak", "Test sinovi" kabi interfaol metodlardan foydalanish yuqori samara beradi."To'g'ri top" usuli. 8-sinflarda "Odam va uning salomatligi fanidan "Ovqat hazm qilish organlari gigienasi. Me'da - ichak kasalliklari va ularni oldini olish" mavzularini "To'g'ri top" usuli asosida quyidagicha tushuntiriladi. Bunda rasmi test

berilgan, ya'ni rasmda ovqat hazm qilish a'zolari raqamlangan holda beriladi, o'qituvchining stoli ustidagi raqamlarni o'quvchilar olib rasmga qarab uning nomi vazifasini aytishadi. "To'g'ri top" usulini darsning mustahkamlash bosqichida ham qo'llash yaxshi samara beradi. Yangi mavzuni yoritishda matbuot konferentsiyasi o'tkaziladi, bunda o'quvchilarga oldindan rollar taqsimlab beriladi, mavzuni mustahkamlashda intervyu metodi qo'llanilgan va munosobat mashqi o'tkazilgan. Darsning bu bosqichida mavzuga oid slayd namoyish etiladi, har bir slayd namoyish etilganda o'quvchilar qo'llaridagi to'q rangdagi bulut yoki yashil rangdagi barglarni ko'tarishib o'z munosobatini bildirishadi darsga taklif etilgan gazeta muxbiri ulardan nega bunday munosobat bildirishgani haqida intervyu oladi. Mavzu barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. O'qituvchi o'quvchilarning faolligini, darsga nisbatan qiziqishlarini oshiradi. Mavzuda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalardan kelib chiqqan holda o'quvchilar bilimini baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilarni o'z-o'zini mustaqil boshqarishga o'rgatadi. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi. Kasbga yo'naltiradi. O'quvchilar me'da ichak kasalliklarining turi, kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish yo'llarini bilib oladi. Gigiena qoidalariga, tozalikka amal qilish salomatik garovi ekanligini tushunib yetadi. Darsda olgan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarga kundalik hayotda amal qilishga o'rganadi. Sog'lom turmush tarziga odatlanadi. Savol-javob metodi: Bu o'yinni o'tkazishda o'quvchilar juft bo'lib yoki guruh shaklida o'ynaydilar. O'qituvchi tomonidan 2 ta guruhlariga berilgan topshiriqlar belgilangan vaqtga qadar bajarilishi kerak. O'quvchilar javoblarni daftarlariga yozadilar. Yozib bo'lgach savol-javob tarzida og'zaki o'tkaziladi. 1-savol: Inson doim sog'lom bo'lishi uchun dastlab ovqatlanish gigienasiga rioya qilishi kerak deb o'ylayman. Bu haqida fikringiz qanday? Javob: Ovqatlanish gigienasiga amal qilish, bu barcha organlarimizning faoliyati normal bo'lishini va barcha me'da ichak kasalliklarini oldini olishning eng muhim shartlaridan biri. Ovqatlanish qoidalariga ham rioya qilish zarur va ovqat tarkibida o'sayotgan organizm uchun oqsil, yog', uglevodlarning miqdori yetarli bo'lishi kerak. 2-savol: Maktab yoshidagi bola bir kunda necha marta ovqatlanishi kerak, ovqatning tarkibida oqsil, yog', uglevodning bir kunlik miqdori qancha bo'lishi kerak? Javob: Maktab yoshidagi bola ish qobiliyatini saqlashi uchun bir kunda to'rt marta ovqatlanishi kerak. 12-14 yosh bolaning ovqati tarkibida 90-100 g yog', 90-100 g oqsil, 400-450 g uglevod bo'lishi kerak. Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, bir-birini to'liq tushuntirishga asoslanadi.

Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O.Mavlonov, T.Tilavov, B.Aminov Biologiya( Odam va uning salomatligi) Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik Qayta ishlangan va to'ldirilgan 6-nashri Toshkent-2019
- 2.Toli pova J.O. Biologiyani o`qitishda pedagogik texnologiyalar. O`quv qo`llanma. Toshkent 2004.
- 3.Maktabda biologiya 2016 yil 10-son



**WOC**  
WORLD  
ONLINE  
CONFERENCES

